

**Xodjayeva Dilafro'z Izatilloevna**

PhD Buxoro davlat universiteti dotsenti

d.i.xodjaeva@buxdu.uz

**ANNOTATSIYA:** Mazkur maqolada zamonaviy tilshunoslikda terminlarni tasniflash masalasi yoritilgan. Unda an'anaviy normativ yondashuv va zamonaviy deskriptiv yondashuvlar asosidagi tasniflash tamoyillari to'g'risida nazariy mulohazalar keltirilib, faktik ma'lumotlar bilan to'ldirilgan.

**KALIT SO'ZLAR:** terminologiya, tasnif, normativ, deskriptiv, yasama, qisqartma, semantik tuzilish, formal tuzilma.

**ANNOTATION:** This article explores the issue of classifying terms in modern linguistics. It provides theoretical reflections on classification principles based on traditional normative approaches and modern descriptive approaches, supplemented with factual data.

**KEYWORDS:** terminology, classification, normative, descriptive, derived, abbreviation, semantic structure, formal structure.

**АННОТАЦИЯ:** В данной статье рассматривается вопрос классификации терминов в современной лингвистике. Представлены теоретические размышления о принципах классификации на основе традиционного нормативного и современного дескриптивного подходов, дополненные фактическими данными.

**КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА:** терминология, классификация, нормативный, дескриптивный, производный, сокращение, семантическая структура, формальная структура.

### KIRISH

Terminologiya sohasida olib borilayotgan qator ilmiy izlanishlarga qaramay, terminlarni turli usullar asosida tasniflash masalasi hali ham dolzarb bo'lib qolmoqda. Turli manbalarga tayangan holda, terminlarni quyidagi tasniflash parametrlari muhim deb topilgan: qo'llanish sohasi, til-manba, mazmun va shakliy tuzilishi, morfologiyasi va terminning tarkibi, mustahkamlik darajasi. Terminlar va termin tizimlarini ushbu aspektlarda tahlil qilish terminologiyaning zamonaviy holatini umumiy tavsiflash, eng yangi terminologiyalarni tasniflash, ayrim terminologik sohalarni qiyosiy tipologik tadqiq etish va maxsus lug'atlar tuzish tamoyillarini bir xillashtirish imkonini beradi. Terminlar tasnifi, boshqa har qanday tasnif kabi, tushunchalarni uyushish yoki ajratilish printsipligiga asoslanadi<sup>1</sup>.

#### METODOLOGIYA

Quyida terminlarni tasniflash yondashuvlarini ko'rib chiqamiz.

**1. Qo'llanish sohasi bo'yicha** terminlar til terminlari va nutq terminlariga bo'linadi. Nutq terminlari qisqartirilgan shakllarni o'z ichiga olishi mumkin (masalan, ж/д – temir yo'l, трубопр. – quvur). Bu ajratish bilan terminologik leksikaning me'yorga muvofiqligi, xususan, professional jargonlarning nojo'yaligi masalasiga bog'liq. Termin ishlatilishi adabiy tilning barcha me'yorlariga javob berishi kerak.

**2. Til-manbaga ko'ra,** terminlar tub terminlar, o'zlashma terminlar va gibrid terminlarga bo'linadi. Olimlarning tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, qadimgi davrlardagi ko'plab

<sup>1</sup> Суперанская А.В. Общая терминология: Вопросы теории. - М.: Наука, 1989. – С. 34

leksik birliklar hozirgi kunda kasbiy terminologiya tarkibiga kirib, turli davrlardagi tilining rivojlanish va shakllanish xususiyatlarini aks ettiradi<sup>2</sup>.

## NATIJALAR

L.P. Krisinning ta'kidlashicha, "tilda sodir bo'layotgan eng faol va ijtimoiy ahamiyatli jarayonlardan biri chet tilidan olingan so'zlardan foydalanishning faollashuvi hisoblanadi"<sup>3</sup>. Ushbu jarayon ilm-fan faoliyatining yangi realliklarini aks ettiruvchi shakllanayotgan terminologiyalar uchun ham xosdir. Ba'zi lingvistlar hatto ingliz tilidan kelib chiqqan "terminologik toshqin" haqida gapirishadi. Filologlar orasida yangi o'zlashgan leksika "tezda moslashishga ulgurmay, ona tilini to'ldirib, uning chegaralarini buzmoqda va yaxlitligiga tahdid solmoqda" degan fikr shakllangan<sup>4</sup>. O'zlashmalar hisobiga tilni yangilash jarayoni kuzatilmogda. Biroq, V.G. Kostomarov yozganidek, "rus tili o'zining ko'p sonli suffikslari, prefikslari va qo'shimchalari bilan so'z importini qabul qilish uchun ajoyib darajada mos keladi", chunki u o'zlashmalarni osongina moslashtiradi<sup>5</sup>.

Chet tilidan kirgan terminlar to'liq shaklda yoki ayrim termin elementlari sifatida o'zlashtirilishi mumkin. Turli tillarning terminologiyalaridagi o'zlashgan leksikaning katta qismi yunon-lotin morfemikasi asosida yaratilgan xalqaro leksika bilan ifodalanadi. V.V. Vinogradovning ta'kidlashicha, bunday terminlar dunyo sivilizatsiyasining umumiy so'z boyligini tashkil qiladi<sup>6</sup>.

## MUHOKAMA

Bu terminlarning mahalliy tilda mavjud bo'lgan terminlarga nisbatan bir qator afzalliklari mavjud. Neytral belgi sifatida o'zlashgan element qo'shimcha ma'no yoki ekspressiyaga ega emas va u maksimal darajada monosignifikativdir (ya'ni faqat bitta ma'noga ega). A.A. Reformatskiy ta'kidlashicha, xalqaro elementlardan tuzilgan termin turli tillar vakillari uchun tushunarli bo'ladi; u aniq va qisqadir; uning semantik asoslari bir xil terminologik paradigmalarni shakllantirishga imkon beradi va yangi terminlarni yaratishga yordam beradi<sup>7</sup>.

Chet tilidan kirgan terminlarda mahalliy tilda mavjud bo'lgan mos keluvchi so'zning keraksiz assotsiatsiyalarini keltirib chiqaradigan semalari yo'qoladi. Masalan, "prefiks" termini "pristavka" so'ziga nisbatan ko'proq muvaffaqiyatli hisoblanadi, chunki "pristavit" so'zining semantikasi nuqtai nazaridan bu harakatni ham old tomondan, ham orqa tomondan amalga oshirish mumkin.

**3. Terminlar mazmuniy (semantik) tuzilishi bo'yicha tasniflanadi**, bu esa ularni bir ma'noli va ko'p ma'noli terminlarga ajratishga imkon beradi. Terminologiyada "ideal" deb bitta termin tizimi doirasida faqat bitta ma'noda ishlatiladigan maxsus so'zlar ataladi. Yu.V. Slojenikina "ideal termin"ning ba'zi belgilari haqida shunday deydi: uning ma'nosi umumiy til semantikasiga zid bo'lmasligi kerak; terminning ma'nosi maxsus so'zni aniqlash va uni semantik jihatdan o'xshash boshqa leksik birliklardan farqlash uchun yetarli darajada komponentlarni o'z ichiga olishi kerak<sup>8</sup>.

**4. Formal tuzilma bo'yicha tasniflash.** B.N. Golovin formal tuzilish bo'yicha terminlarni tasniflashni taklif qiladi. Ushbu tasnif doirasida ikki asosiy turdagi terminlarni ajratish maqsadga muvofiq: so'z-terminlar va so'z birikmasidan iborat terminlar. So'z-

<sup>2</sup> Обремская-Яблонская А.А. Об источниках польско-русского словаря Кирияка Кондратовича // ТОДРЛ. 1958., – Т. 14. – С. 597–604.

<sup>3</sup> Крысин Л.П. Иноязычное слово в контексте современной общественной жизни // Русский язык конца XX столетия (1985–1995). М.: Языки русской культуры, 2000. – С. 143–161.

<sup>4</sup> Скляревская Г.Н. Толковый словарь русского языка конца XX века. Языковые изменения. – СПб.: Институт лингвистических исследований РАН, 1998. – С. 7.

<sup>5</sup> Костомаров В.Г. Языковой вкус эпохи. – М.: Педагогика-пресс, 1994. – С. 24.

<sup>6</sup> Виноградов В.В. Русский язык: Грамматическое учение о слове. М.: Высшая школа, 1986. – С. 54.

<sup>7</sup> Реформатский А.А. Введение в языковедение. – М.: Аспект Пресс, 1997. – С. 125–126.

<sup>8</sup> Сложеникина Ю.В. Основы терминологии: лингвистические аспекты теории термина. – М.: URSS, 2013. – С. 27.

terminlar morfem tuzilishiga ko'ra tasniflanadi va quyidagilarga ajratiladi: oddiy (tub), yasama, murakkab va qisqartmalar<sup>9</sup>. S.V.Grinev so'z-terminlarni ularning strukturaviy turlariga muvofiq tasniflagan: oddiy (faqat bitta ildizdan tashkil topgan), affiksial (ildiz va affiksdan tashkil topgan), murakkab (ikki va undan ortiq ildizdan tashkil topgan)<sup>10</sup>. So'z birikmalaridan iborat terminlarda asosiy so'zning morfologik xususiyati birikmaning turini aniqlaydi: substantiv (asosiy so'z sifatida ot ishlatilgan), adyektiv (asosiy so'z sifatida sifat ishlatilgan), fe'l birikmalari.

Semantik tuzilishiga ko'ra, so'z birikmalaridan iborat terminlar quyidagicha bo'lishi mumkin: erkin, barqaror va frazeologik bog'langan. Terminologik birikmalar turli grammatik modellarga asoslanib shakllanadi va yuqori darajadagi o'zgaruvchanlikka ega. Olimlar termin shakliga bir qator talablarni qo'yadilar: qisqalik, fonetik, sintaktik va boshqa variantlarning (masalan, ma'rketing-marke'ting) mavjud bo'lmasligi.

**5. Morfologik nuqtai nazardan**, terminlar ot, fe'l, sifat va ravishlar shaklida bo'lishi mumkin. Fe'l va ravishlar, odatda, umumilmiy terminologik ma'noga ega bo'ladi. Sifatlar esa murakkab terminlarning zaruriy elementlari bo'lib, aniqlovchi so'z vazifasini bajaradi (masalan, urg'usiz bo'g'in).

## XULOSA

Mazkur tasnif yondashuvlari zamonaviy terminologiyani tadqiq qilish, ilmiy til rivojlanishini aniqlash va uni takomillashtirishga xizmat qiladi. Shunday qilib, deskriptiv terminologiya doirasida maxsus so'zlarni tasniflashga oid turli yondashuvlar shakllandi, jumladan: qo'llanish sohasi, til-manba, mazmuniy va formal tuzilma, morfologiya va terminning tarkibi, mustahkamlik darajasi kabilar. Ko'rsatilgan mezonlar terminologiya nazariyasiga kiradi va turli xususiy terminologiyalarni tasvirlash va o'rganish maqsadlariga xizmat qiladi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Виноградов В.В. Русский язык: Грамматическое учение о слове. – М.: Высшая школа, 1986. – С. 54.
2. Головин Б.Н. Лингвистические основы учения о терминах. - М.: Высшая школа, 1987. – С. 70.
3. Гринев С.В. Исторический систематизированный словарь терминов терминоведения: учебное пособие. – М.: Московский педагогический университет, 2000. – С. 125.
4. Костомаров В.Г. Языковой вкус эпохи. – М.: Педагогика-пресс, 1994. – С. 24.
5. Крысин Л.П. Иноязычное слово в контексте современной общественной жизни // Русский язык конца XX столетия (1985–1995). М.: Языки русской культуры, 2000. – С. 143–161.
6. Обремская-Яблоньская А.А. Об источниках польско-русского словаря Кирияка Кондратовича // ТОДРЛ. 1958., – Т. 14. – С. 597–604.
7. Реформатский А.А. Введение в языковедение. – М.: Аспект Пресс, 1997. – С. 125–126.
8. Складневская Г.Н. Толковый словарь русского языка конца XX века. Языковые изменения. – СПб.: Институт лингвистических исследований РАН, 1998. – С. 7.
9. Сложеникина Ю.В. Основы терминологии: лингвистические аспекты теории термина. – М.: URSS, 2013. – С. 27.
10. Суперанская А.В. Общая терминология: Вопросы теории. – М.: Наука, 1989. – С. 34

<sup>9</sup> Головин Б.Н. Лингвистические основы учения о терминах. - М.: Высшая школа, 1987. – С. 70.

<sup>10</sup> Гринев С.В. Исторический систематизированный словарь терминов терминоведения: учебное пособие. – М.: Московский педагогический университет, 2000. – С. 125.